



**THE HISTORY OF RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND THE
REPUBLIC OF KOREA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10164412>

Sultanova Zarnigor Akbar qizi.

Master of International Relations at the University of World Economy and Diplomacy

ABSTRACT

This article talks about the relationship between our country and the Republic of Korea and the history of its formation.

Key words

Security, economic, political, humanity, Silk Road, mutual relations, Pacific region.

**O'ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI
MUNOSABATLAR SHAKLLANISH TARIXI**

Sultanova Zarnigor Akbar qizi.

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar yo'nalishi
magistranti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yurtimiz hamda Koreya Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar hamda uning shakllanish tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Xavfsizlik, iqtisodiy, siyosiy, insoniyat, Ipak yo'li, o'zaro munosabat, Tinch okeani mintaqasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о взаимоотношениях нашей страны и Республики Корея и истории ее становления.

Ключевые слова

Безопасность, экономика, политика, гуманность, Шелковый путь, взаимоотношения, Тихоокеанский регион.

Bugungi murakkab vaziyatda dunyo tinchligi, xavfsizlik va barqarorlik davlatlar hamda millatlarning o'zaro ishonchi, hamjihatligi va do'stona aloqalarni mustahkam o'rnatishiga bog'liq bo'lib qoldi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy



munosabatlarning ijobiy o'zanda rivojlanishigina global muhitda, integratsiyalangan sharoitda yashashga ko'nikib ulgurgan insoniyatni bugungi tang vaziyatdan olib chiqishi mumkin.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi aloqalari qadimdan mavjud bo'lgan, buyuk ipak yo'li orqali bog'langan aloqalar bugungi kunga kelib juda mustahkamlandi. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi masofa uzoq bo'lsada o'zaro manfaatli aloqalar orqali yaqinlik hosil bo'ldi. Koreya Respublikasi 1991-yil 30-dekabrda Osiyo - Tinch okean mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. Mazkur davlatlar o'rtasidagi munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, bu yil aloqalar 30 yillik tarixga ega.

O'tgan 30 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarga erishganlar. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi. 2014-yilda esa Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

Ikki mamlakatning siyosiy munosabatlari haqida so'z ketganda, avvalo, davlat rahbarlari o'rtasidagi samimiy do'stlikni ta'kidlash kerak. Bu do'stlik Janubiy Koreya Prezidenti Li Myon Bak Seul meri bo'lgan yillari boshlangan. 2008-yilda Li Myon Bak prezident saylovida g'alaba qozonib, davlat rahbari lavozimini egallagach, inauguratsiya marosimiga oliy faxriy mehmon sifatida O'zbekiston rahbarini taklif etdi. 2009-yilning may oyida O'zbekiston va Koreya Respublikasi rahbarlari Toshkentda uchrashdilar. Davlat rahbarlarining har bir uchrashuvi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab bordi. So'nggi to'rt yil davomida esa O'zbekiston- Koreya Respublikasi munosabatlari ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi boy va sermazmun siyosiy muloqotga asoslangan holda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi geografik jihatdan bir-biridan uzoq, lekin ko'ngli yaqin, tinchlik va taraqqiyot yo'lida maqsadi mushtarak davlatlardir. Tarixdan ma'lumki, mamlakatlarimiz Buyuk ipak yo'li davrlaridan boshlab o'zaro bordi-keldi qilgan. Samarqanddagi "Afrosiyob" muzeyida saqlanayotgan devoriy suratlarda VII asr o'rtalarida Samarqand hukmdorining qadimgi Koreya Respublikasi - Choson elchisini qabul qilish marosimi aks ettirilgani bunga yorqin misol bo'la oladi. Mamlakatlarimiz vaqt sinovidan o'tgan ishonchli strategik sheriklardir. Oliy darajadagi muloqotlar va mushtarak intilishlar samarasida mamlakatlarimiz hamkorligi barcha



yo'nalishlarda izchil rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 22-25-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi o'zaro munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Ta'kidlash joizki, Koreya Respublikasining O'zbekistonga investitsiyalari hajmi 7 milliard dollardan oshgan. Joriy yilda 320 million dollar, ya'ni 2020 yilga nisbatan 20 foiz ko'p o'zlashtirildi. Bu mablag'lar hisobiga kimyo, neft-kimyo, to'qimachilik, qurilish, qishloq xo'jaligida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni qariyb ikki barobar ortgani e'tiborlidir. Pandemiya oqibatlariga qaramay, ko'p qirrali munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, ularni yanada rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida Erkin savdo to'g'risidagi bitimni tuzishga tayyorgarlik jarayonini yakunlash muhim ahamiyatga ega. Bu bilan tovar ayirboshlash ko'rsatkichlarini oshirish va muvozanatga keltirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bu mamlakatimizda birgalikda tashkil etilgan To'qimachilik texnoparki va Qishloq xo'jaligi mashinasozligi markazi faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish va rivojlantirishga ham talluqlidir. Biz mamlakatimizda turizm sohasi, Koreya kompaniyalarining mehmonxonalar va infratuzilma ob'ektlari qurilishi bilan bog'liq loyihalardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlaymiz.

Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga amalga oshirgan Davlat tashrifi doirasida o'zaro hamkorlikning "yashil" taraqqiyot, raqamlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslarini amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston-Koreya Respublikasi munosabatlarini rivojlantirish doirasida o'z navbatida, samarali siyosiy muloqotni amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik, birinchi navbatda, parlamentlararo "do'stlik guruhlarini"ning o'rni borligini alohida ta'kidlaymiz. Ular mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni amaliy mazmun bilan to'ldirib, qonun ijodkorligi masalalari bo'yicha tajriba almashish, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, gender masalalari, ta'lim, mintaqaviy rivojlanish sohalariga elektron parlament mexanizmlari, islohotlarni joriy qilish imkonini beradi.

Koreys diasporasi O'zbekistonda istiqomat qilishining 85-yilligi hamda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan tadbirlar o'tkazish Do'stlik guruhi faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi bo'lishi kerak. Bu borada parlament vakillari 2022 yilni "O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'zaro almashinuvlar yili" deb e'lon qilish, Toshkentda Koreyslar tarixi muzeyi hamda Koreys madaniyat va san'at uyi qoshida kutubxona tashkil etish taklifini ma'qullaydilar.



Umuman olganda, O'zbekiston Prezidentining ushbu tashrifi O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishga yangi kuchli sur'at bag'ishlaganini alohida ta'kidlaymiz.

Tarixiy, madaniy jihatdan ham ko'plab uyg'unliklarni ko'rish mumkin. Jafokash koreys xalqi ham o'zbeklar singari o'tmishda ko'p bor bosqinchilar zulmi ostida yashashga, ularga qarshi qon va jon kurashini olib borishga majbur bo'lgan. Ana shunday qiyinchiliklar evaziga bo'lsa kerak, koreyslar hozirgi tinch va farovon muhitda ham o'zlarining mehnatsevarligi, tirishqoqligi bilan ajralib turadi, yangiliklarga qo'l urib, turmush tarzini yanada farovonlashtirishga intilib yashaydi. Bugungi murakkab vaziyatda dunyo tinchligi, xavfsizlik va barqarorlik davlatlar hamda millatlarning o'zaro ishonchi, hamjihatligi va do'stona aloqalarni mustahkam o'rnatishiga bog'liq bo'lib qoldi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy munosabatlarning ijobiy o'zanda rivojlanishigina global muhitda, integratsiyalangan sharoitda yashashga ko'nikib ulguragan insoniyatni bugungi tang vaziyatdan olib chiqishi mumkin. Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida o'zaro hamkorlikning "yashil" taraqqiyot, raqamlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslarini amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. O'zbekiston-Koreya Respublikasi munosabatlarini rivojlantirish doirasida o'z navbatida, samarali siyosiy muloqotni amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik, birinchi navbatda, parlamentlararo "do'stlik guruhleri" ning o'rni borligini alohida ta'kidlaymiz. Ular mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni amaliy mazmun bilan to'ldirib, qonun ijodkorligi masalalari bo'yicha tajriba almashish, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, gender masalalari, ta'lim, mintaqaviy rivojlanish sohalariga elektron parlament mexanizmlari, islohotlarni joriy qilish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda koreslar o'rtasida ham o'zbek tili, milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz va san'atimizga katta qiziqish bildirganlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Janubiy Koreyaning Tegu va Pusan chet tillari universitetlarida o'zbek tili o'rgatilmoqda. Ildizlari do'stlik, sherikchilik va sharqona qadriyatlardan kuch olayotgan ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar kelgusida ham jadal taraqqiy etaveradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xurshidbek Samiyev. O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi hamkorlik natijalari. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorliknatijalari>.
2. Obid Hakimov “The Korea Post” jurnali. O‘zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogosotrudnichestva>
3. Мусаев Б. Мехнат ҳуқуқи: уни ҳимоя қилиш борасида. Ўзбекистон ва Корея Республикаси ҳамкорлиги.-Тошкент: 2017. -Б. 76.
4. Kamoliddin, M. (2020). Conceptual approach to democratization of public administration. *Russia and the moslem world*, (2 (308)), 66-76.
5. Mansurjonovich, M. K. (2022). Methods for Assessing the Efficiency of Management at the Current Stage of State Development. *Middle European Scientific Bulletin*, 20, 61-67.